



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti  
TARIX FAKULTETI



# TARIX JAM'YAT

## JOURNAL 2023

No 5



HISTORY AND SOCIETY  
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
ЖУРНАЛ



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

**2023-yil 5-son      Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o‘qitish metodikasi**

**Bosh muharrir:**      **Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.**

**Bosh muharrir**      **Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.**  
**o‘rinbosari:**

**Mas’ul kotib:**      **Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**

### TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:**

**Axmurodov D.Q**

## **MANFAATLAR TIZIMIDA TARBIYA, G‘OYA VA MAFKURANING O‘ZARO ALOQADORLIGI**

G‘oziyev Z. JDPU o‘qituvchisi  
Xo‘jamqulov M. JDPU 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy manfaatlar tizimida tarbiya, g‘oya va mafkuraning aloqadorligi va o‘zaro ta’siri masalalari tadqiq qilingan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, milliy, manfaat, ehtiyoj, tarbiya, g‘oya, mafkura, shaxs, islohot, ma’naviyat, o‘zlikni anglash, ijtimoiy, diniy, umuminsoniy, daxldorlik, Vatan.

### **ВЗАИМОСВЯЗЬ ОБРАЗОВАНИЯ, ИДЕИ И ИДЕОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ИНТЕРЕСОВ**

Гозиев З. Преподаватель ЖДПУ  
Колдошев Д. студентка 4 ступени ЖДПУ

**Абстрактный:** В данной статье рассматривается взаимосвязь и взаимодействие образования, идеи и идеологии в системе национальных интересов.

**Ключевые слова:** Узбекистан, национальный, интерес, потребность, образование, идея, идеология, личность, реформа, духовность, самосознание, социальное, религиозное, общечеловеческое, причастность, Родина.

### **INTERRELATIONSHIP OF EDUCATION, IDEA AND IDEOLOGY IN THE SYSTEM OF INTERESTS**

Goziev Z. Teacher of JDPU  
Koldoshev D. 4th stage student of JDPU

**Abstract:** This article examines the relationship and interaction of education, ideas and ideology in the system of national interests.

**Key words:** Uzbekistan, national, interest, need, education, idea, ideology, personality, reform, spirituality, self-awareness, social, religious, universal, involvement, Motherland.

O‘zbekiston bozor munosabatlarigi o‘tish mamlakat aholisiga yangicha fikrlash, ishlash va yashashni talab qiladi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti har bir inson olidiga yashash uchun intensiv samarali mehnat qilish va ma’naviy qadriyatlar, ajdodlar merosidan bahramand bo‘lishni ham talab etmodaki, bu o‘ta mas’uliyatli vazifalarni uddalamoq uchun jamiyatimiz kishilarini milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi asosida tarbiyalash, unda shaxs, millat, davlat, jamiyat manfaati va ehtiyojlar uygunligini ta’minlash ham g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan bu masala xususida Prezidentimiz kuyunchaklik bilan shunday deydi: Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz

tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga qulq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishslashga alohida e’tibor qaratishimiz zarur[1:25].

O‘zbekiston sharoitida islohotlarni fuqarolarning ehtiyoj va manfaatlari, mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi hayotiy ehtiyojlarning qondirilishi uchun va shu orqali umumdavlat manfaatlarini ifodalagan holda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, davlatning bosh islohotchiligi asosida sifatiy yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yuzaga kelmoqda va shakllanmoqda. I.A.Karimov so‘zlari bilan aytganda, “Davlat butun halqning manfaatlarini ko‘zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo‘lishi, iqtisodiy taraqqiyotining yetakchi yo‘nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy xayotida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqish va izchil ro‘yobga chiqarish kerak”[2:178].

Eng avvalo madaniy ma’rifiy taraqqiyot jamiyat ehtiyoji va manfaatining asosi bo‘lishi zarur. Binobarin, halqning ma’naviy merosi ming yillar mobaynida ma’naviyat manbai sifatida xizmat qilib kelgan. Hayotiy ehtiyoj bo‘lgan xalq qadriyatlari, boy ma’naviyat hozir kam kishilarga, hususan yoshlarga vatanparvarlik ruhidagi tarbiya olishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinci chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to‘qqizinch sessiyasida Prezidentimiz I.A.Karimov o‘z nutqida bu xususda to‘xtalib quyidagilarni ta’kidlagan edi. “Barchamiz yaxshi bilamizki eng muhim tarkibiy qismi Ma’naviyat va ma’rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdan iborat”[3:18].

Bu xayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyillarga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog‘i hamda o‘zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog‘i lozim. Bu tizim markazida ma’naviyat, ahloq-odob, ma’rifat kabi o‘lmas qadriyatlар tarmog‘i kerak.

Modomiki shaxs tarbiyasidagi g‘oya va manfaatlar mashtarakligi yetakchilik qilar ekan, bu ikki ijtimoiy-falsafiy kategoriya qisqacha izoh beribotish, masala mohiyatini chuqurroq anglab olishga imkon beradi, deb o‘ylaymiz. G‘oyalarga berilgan ta’riflarning barchasini birma-bir sanash ehtiyoji yo‘qligini inobatga olib, g‘oya tushunchasiga o‘z munosabatimizni quyidagicha izohlamoqchimiz. “G‘oya-muayyan bir kishi tafakkurida tug‘ilgan hamda kishilar millat va xalq manfaatlari, orzu-intilishlarini ifodalagan, omma tomonidan qo‘llab-quvvatlangan fikrning ijtimoiylashgan shakli”.

Har qanday fikr ham g‘oya bo‘lavermaydi. Faqat ko‘pchilikning maqsad-muddaolariga mos tushgan fikrgina g‘oya bo‘lishi mumkin. Milliy g‘oya esa

xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g‘oyadir[4:10].

Binobarin g‘oya manfaatini to‘la anglash uchun mafkura tushunchasini ham ilmiy tahlil qilish zarur. Mazkur masalani birinchi bo‘lib Prezidentimiz I.A. Karimov ilmiy izohladi. Yurtboshimiz tomonidan ma’naviyat, mafkura va milliy g‘oyaning uzviy birligi, mutanosibligi haqida konseptual g‘oya ilmiy ijodiy kashf etildi. Prezident ta’limotida ilmiy ifodalangan mafkura jamiyatning mustaqil siyosiy jabhasi sifatida ma’naviyatga asoslanadi. Milliy g‘oya mohiyatida esa aynan ana shu ma’naviyat yotadi.

U milliy g‘oya uchun tub asos, mushtarak holda esa mafkuraning mohiyatini belgilaydi. Milliy istiqlol mafkurasining tub mundarijasi millatu yurtning buyuk maqsadlari sari chorlovchi, safarbar etuvchi mayoq bosh maqsaddir.

Shu o‘rinda “Milliy g‘oya”, “mafcura” tushunchalari bilan birga “ideologiya” atamasini ham biroz tahlil qilish zaruriyati yuzaga keladi. Chunki sobiq ittifoq davrida qulog‘imizga singib qolgan bu tushuncha ham u yoki bu darajada milliy mafkuramizni boshqa mafkuralardan asosiy farqini yaxshi anglab olish, chuqurroq mushohada qilishga yordam berdi deb o‘ylaymiz.

“Ideologiya” atamasi qadimgi Yunonistondan kelib chiqqan bo‘lib, u bizning tilimizga “g‘oyalar xaqidagi ta’limot” deb tarjima qilinadi, qaysiki u ikkita so‘zdan “ideya-g‘oya”, va “logos-ta’limot”, so‘zlardan tarkib topgan. Rus olimlari V.Kovalino va A.I.Kostinlarning yozishicha bu so‘z ilmiy istimolga fransuz ma’rifatparvarlarning so‘nggi vakili Anto‘on Destyutom de Grosi tomonidan kiritilgan. U o‘zining “Fikralash xaqidagi etyud” nomli asarida g‘oyalar xaqidagi fanni tafsivlash uchun “ideologiya” atamasidan foydalangan. Uning fikricha, bu fan barcha tabiiy fanlar kabi juda aniq bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda “g‘oya”, “mafcura”, “ideya” va “ideologiya” tushunchalar ishlatalmoqda, albatta.

Ideya va idealogiya ko‘proq G‘arb davlatlari hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ularda idiologiya atamasi g‘oyalar to‘g‘risidagi ta’limotni anglatib ikki hil ma’noda ishlataladi:

g‘oyalarning mohiyat-mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha bo‘lib hisoblanadi;

muayyan g‘oyani amalga oshirish, maqsadga yetish usullari, vositalari, omillar tizimini anglatadi[4:6].

Bir so‘z bilan aytganda eski komunistik idealogiya bugungi kunimiz mafkurasida ilgari surilayotgan tamoyillarni hech biriga na ma’no jihatidan, na mazmun va muddaolari jihatidan munosib emas.

Inson manfaati uzviy ravishda shaxsiy, etnik, milliy, ijtimoiy, diniy va umuminsoniy qadryatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Milliy manfaat muammosi, millat va davlat bor ekan, doimo o‘z dolzarbligini yqotmaydi. Ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng bu muammoni o‘rganish siyosiy jihatdan ham faollashdi. Yurtboshimiz so‘zlar bilan aytganda, “Xalqlarni potensial resurslari, an’ana, urf-odatlar yillar davomida shakllangan turmush tarzini hisobga olgan holda, milliy manfatlaridan kelib chiqib, respublika iqtisodiyotini tubdan qayta qurishning real imkoniyati yuzaga keladi”.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, turli davralarda real shart-sharoitlarga bog‘liq holda, manfaatning u yoki bu tomonlari yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Bularga bog‘liq ravishda manfaatning tuzulishi ham o‘zgarib turadi.

Kishilarning bilimi, ilimi, amaliy malakalari rivojisiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo‘lmaydi. Muayyan ma’naviy ihtiyojlarga, ahloqiy faziatlarga ega bo‘limgan kishilarga ilm –fanni o‘rganishga, halol mehnat qilib, hunar-kasb egallashga, malaka oshirishga ishtiyoy ham bo‘lmaydi.

Birinchi Prezidentimiz erkin fuqaro va ozod shaxs haqida gapirar ekan, quyidagi to‘rt jihatga alohida e’tiborni qaratdi, ya’ni har bir fuqro:

- o‘z haq-huquqini taniydigan bo‘lsin, buning uchun kurashsin;
- o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo‘lsin, imkoniyatlarini ishga solib samarasini ko‘rsin;
- atrofida sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin;
- shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg‘un holdi ko‘rib faoliyat yuritsin[5:233].

Bu-o‘z navbatida barkamol inson fazilatlari haqidagi aniq va to‘liq ta’rifdir. Har bir inson zoti ma’naviy qiyofasi tufayli shaxsdir.

Zero, har bir odamning ozodligi u yashaydigan Vatan ozodligi, u mansub bo‘lgan xalq ozodligi bilan chambarchas bog‘liq. Vatan va millatdan tashqarida turib ozodlik haqida gapirib bo‘lmaydi. Har bir inson o‘z yurtida, o‘zining xalqi ichida erkin shaxs bo‘lib voyaga yetishi mumkin, jumladan har bir insonning ma’naviy qiyofasi ham u mansub bo‘lgan xalqning ma’naviy qiyofasini o‘zida aks ettiradi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sh.Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. T-3. -T.: “O‘zbekiston”, 1996.
3. Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. -T.: “O‘zbekiston”, 2002.

4. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
5. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: “O‘zbekiston”, 2000.

## MILLIY YUKSALISH SHAROITIDA INSON MANFAATINING TA’MINLANISHIDA IJTIMOIY ISLOHOTLARNING AHAMIYATI

*Alisher Ibragimov Qurbon o‘g‘li  
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi  
Qurbanov Temir Qurbon o‘g‘li  
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti*

**Annotasiya:** Mazkur maqolada milliy yuksalish sharoitida davlatimizda ijtimoiy sohadagi islohotlarning olib borilishi va bu borada inson manfaatlarining ta’minlanishi, davlat va jamiyat qurilishi borasida har tomonlama rivojlanish va taraqqiyot tamoyillari aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** Milliy yuksalish, inson, demokratiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, inson manfaati, erkinlik, farovonlik, ijtimoiy qadriyatlar, iqtisodiyot, ma’naviyat, taraqqiyot.

## ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ РЕФОРМ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ БЛАГ В УСЛОВИЯХ НАЦИОНАЛЬНОГО ПРОГРЕССА

**Алишер Ибрагимов сын Курбана**  
Преподаватель Джизакского государственного  
педагогического университета

**Курбанов Темира сын Курбана**  
Выпускник Джизакского Государственного  
Педагогического Университета

**Аннотация:** В данной статье отражены принципы всестороннего развития и прогресса в строительстве государства и общества, реализации реформ в социальной сфере в нашей стране в контексте национального прогресса и обеспечения интересов человека.

**Ключевые слова:** Национальный прогресс, человек, демократия, верховенство закона, гражданское общество, интересы человека, свобода, процветание, социальные ценности, экономика, духовность, развитие.